



## **FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI**

2025-yil 25-iyul

173-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

### **Farg‘ona tumani “Farg‘ona-Vodil-Shoximardon” avtomobil yo‘lga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida**

Farg‘ona tumani Shohimardon mahallasi Shohimardon qishlog‘i aholisi va mehmonlarga qulaylik yaratish, tirbandlikni oldini olish maqsadida va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 4-16-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash maqsadida, tuman Ichki Ishlar bo‘limining 2025-yil 28-iyundagi 37/11-1302-sonli xatini ko‘rib chiqib,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Farg‘ona tuman Ichki Ishlar bo‘limining 2025-yil 28-iyundagi 37/11-1302-sonli xatini ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Farg‘ona tumani Shohimardon mahallasi Shohimardon qishlog‘i aholisi va mehmonlarga qulaylik yaratish, tirbandlikni oldini olish maqsadida va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan “Farg‘ona-Vodil-Shoximardon” avtomobil yo‘lining PK 288+88 dan PK 292+38 oralig‘i Shohimardon qishlog‘i markaziga 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” hamda 7.1.1 “Ta‘sir oralig‘i” yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.
3. Farg‘ona tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (J.Xasanov), tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi rahbari (A.Zikryayev)lar hamkorlikda Shohimardon mahallasi Shohimardon qishlog‘i aholisi va mehmonlarga qulaylik yaratish, tirbandlikni oldini olish maqsadida va transport vositalarini harakati xavfsizligini

ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilarini o'rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (A.Ergashev) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda boshqa OAV larda keng yoritishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg'ona tuman hokimi**



**Inomov X.T**